

Digitalization of State Oversight in Labor Relations: Legal Aspects of Implementing the “Risk Analysis” Electronic System

Sholpanay Abdikalikovna Abdijemilova

Chief Legal Counsel Institute for Legislative Analysis and Regulatory Impact
Assessment under the Ministry of Justice of the Republic of Uzbekistan

Abstract

This article examines the legal and practical aspects of introducing the electronic Risk Analysis System for state supervision over compliance with labour legislation. It discusses the mechanisms for classifying business entities according to the level of risk of labour law violations, assessing relevant indicators through a scoring system, and conducting targeted preventive measures and inspections. The article highlights the role of the electronic system in reducing unjustified interference in business activities, improving the efficient use of state supervisory resources, and protecting employees' labour rights. It also identifies certain challenges related to the formulation of risk criteria, the reliability of data used, the transparency of automated assessments, and the right to appeal their results. Based on the analysis, proposals are put forward to improve legislation and law-enforcement practice in the field of risk-based supervision.

Keywords

risk analysis, electronic system, state supervision, business entity, labour relations, State Labour Inspectorate, inspection, preventive measure, digitalisation, labour rights.

Mehnat munosabatlarida davlat nazoratini raqamlashtirish: “Xavfni tahlil qilish” elektron tizimini joriy etishning huquqiy jihatlari

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi qonunchilikni tahlil qilish
va tartibga solish ta’sirini baholash instituti bosh yuriskonsulti

Abdijemilova Sholpanay Abdikalikovna

Annotatsiya

Maqolada mehnat munosabatlarida qonunchilikka rioya etilishi ustidan davlat nazoratini amalga oshirishda “Xavfni tahlil qilish” elektron tizimini joriy etishning



huquqiy va amaliy jihatlarini tahlil qilingan. Tadbirkorlik subyektlarini mehnat qonunchiligi buzilishi xavfi darajasiga ko'ra tasniflash, tegishli ko'rsatkichlarni ball tizimi asosida baholash, profilaktika tadbirlari va tekshiruvlarni manzilli tashkil etish mexanizmlari o'rganilgan. Elektron tizimning tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga asossiz aralashuvlarni kamaytirish, davlat nazorati organlari resurslaridan samarali foydalanish hamda xodimlarning mehnat huquqlarini himoya qilishdagi ahamiyati ochib berilgan. Shuningdek, xavf mezonlarini belgilash, foydalaniladigan ma'lumotlarning ishonchiligi, avtomatlashtirilgan baholashning shaffofligi va uning natijalari ustidan shikoyat qilish bilan bog'liq ayrim muammolar aniqlangan. Tahlil natijalari asosida xavfga asoslangan nazorat sohasidagi qonunchilik va huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: mehnat munosabatlari, Davlat mehnat inspeksiyasi, xavfni tahlil qilish, elektron tizim, davlat nazorati, tadbirkorlik subyekti, tekshiruv, profilaktika tadbiri, raqamlashtirish, mehnat huquqlari.

Аннотация

В статье анализируются правовые и практические аспекты внедрения электронной системы «Анализ риска» при осуществлении государственного контроля за соблюдением законодательства в сфере трудовых отношений. Рассматриваются механизмы классификации субъектов предпринимательства по степени риска нарушения трудового законодательства, балльной отсенки соответствующих показателей, а также адресного проведения профилактических мероприятий и проверок. Раскрывается значение электронной системы в сокращении необоснованного вмешательства в деятельность субъектов предпринимательства, повышении эффективности использования ресурсов органов государственного контроля и обеспечении защиты трудовых прав работников. Кроме того, выявляются отдельные проблемы, связанные с определением критериев риска, достоверностью используемых данных, прозрачностью автоматизированной отсенки и обжалованием её результатов. На основе



проведённого анализа сформулированы предложения по совершенствованию законодательства и практики применения системы риск-ориентированного контроля.

Ключевые слова: трудовые отношения, государственная инспекция труда, анализ риска, электронная система, государственный контроль, субъект предпринимательства, проверка, профилактическое мероприятие, сифровизация, трудовые права.

Kirish

Zamonaviy davlat boshqaruvida nazorat funksiyalarini amalga oshirishning an'anaviy usullari bosqichma-bosqich raqamli va xavfning oldini olishga asoslangan mexanizmlar bilan almashtirilmoqda. Barcha tadbirkorlik subyektlarini bir xil tartibda va bir xil davriylikda tekshirish nazorat qiluvchi organlarning cheklangan resurslaridan samarasiz foydalanilishiga, qonunchilikka halol rioya etayotgan tadbirkorlar faoliyatiga ortiqcha aralashuvga hamda haqiqatan yuqori xavf mavjud bo'lgan sohalarning yetarli darajada nazorat qilinmasligiga olib kelishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirining 2026 yil 1 iyuldagi 9-son buyrug'i bilan «Mehnat munosabatlarida qonunchilikka rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirishda "Xavfni tahlil qilish" elektron tizimini joriy etish tartibi to'g'risida»gi nizom tasdiqlandi. Mazkur buyruq O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 3881-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan bo'lib, hujjatning kuchga kirish sanasi 2026 yil 3 oktyabr etib belgilangan.

Nizom Davlat mehnat inspeksiyasi vakolatiga kiruvchi masalalar bo'yicha tadbirkorlik subyektlari faoliyatida mehnat qonunchiligi buzilishi xavfini elektron tarzda baholash, subyektlarni xavf darajasiga ko'ra tasniflash hamda nazorat tadbirlarini ushbu tasnif natijalariga muvofiq tashkil etish tartibini belgilaydi.

Mazkur institutning joriy etilishi mehnat munosabatlarida davlat nazoratini raqamlashtirish, tadbirkorlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish hamda



xodimlarning mehnat huquqlari buzilishining oldini olishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

Xalqaro mehnat tashkiloti ham zamonaviy mehnat inspeksiyasi tizimlarida nazorat tadbirlarini rejalashtirish, qonunchilikka rioya etilishini rag'batlantirish, xavfli sohalarni aniqlash hamda inspeksiya resurslarini maqsadli yo'naltirish zarurligini ta'kidlaydi. Mehnat inspeksiyasi faqat huquqbuzarlik aniqlanganidan keyin jazo qo'llash bilan cheklanmasdan, profilaktika, maslahat berish va ish beruvchilarning qonunchilikka ixtiyoriy rioya etilishini ta'minlashga ham yo'naltirilishi lozim.

O'zbekistonda joriy etilayotgan elektron tizim ushbu xalqaro yondashuvlarga mos ravishda nazorat tadbirlarini ma'lumotlarga asoslangan holda tashkil etishga qaratilgan.

Nizomga muvofiq, xavf darajasini tahlil qilish tadbirkorlik subyekting faoliyatini to'xtatib turish, unga to'sqinlik qilish yoki uning faoliyatiga to'g'ridan-to'g'ri aralashishni nazarda tutmasligi kerak. Shuningdek, tahlil jarayonida tadbirkorlik subyektidan qo'shimcha hujjatlar va axborot talab qilinishiga yo'l qo'yilmaydi.

Mazkur qoidalar xavfni baholashning nazorat tadbiri emas, balki davlat organlarida va boshqa ochiq manbalarda mavjud ma'lumotlarni avtomatlashtirilgan tarzda qayta ishlash jarayoni ekanligini ko'rsatadi. Bu esa tadbirkorlik subyektlariga qo'shimcha ma'muriy yuk yuklanishining oldini oladi.

Nizomda xavf darajasini baholashda foydalanilishi mumkin bo'lgan axborot manbalari belgilangan. Ular qatoriga:

ma'muriy ma'lumotlar;

davriy statistika ma'lumotlari;

avval huquqbuzarlik holatlari aniqlangan subyektlarga xos umumiy belgilar;

yuridik va jismoniy shaxslarning murojaatlari;

ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar va veb-saytlardagi ma'lumotlar;

davlat organlari va boshqa tashkilotlarda mavjud bo'lgan boshqa axborotlar kiradi.

Turli manbalardan ma'lumot olish tizimning qamrovini kengaytiradi. Masalan, "Yagona milliy mehnat tizimi"da mehnat shartnomasining ro'yxatdan o'tkazilmaganligi



haqidagi ma'lumotlar, soliq va statistika organlaridagi ish haqiga doir ko'rsatkichlar, sug'urta tashkilotlaridagi ish beruvchining fuqarolik javobgarligini sug'urta qilish haqidagi ma'lumotlar o'zaro taqqoslanishi mumkin.

Biroq ijtimoiy tarmoqlar, murojaatlar va boshqa ochiq manbalardan olingan axborotlardan foydalanishda ularning ishonchliligini tekshirish masalasi alohida ahamiyatga ega. Tekshirilmagan yoki noto'g'ri axborot tadbirkorlik subyektiga asossiz ravishda yuqori xavf ball berilishiga olib kelmasligi kerak.

Shu munosabat bilan elektron tizimda har bir ma'lumotning kelib chiqish manbasi, olingan sanasi, uning dolzarblik muddati va ishonchlilik darajasi qayd etilishi maqsadga muvofiq. Murojaat yoki ijtimoiy tarmoqdagi xabar faqat boshqa rasmiy ma'lumotlar bilan tasdiqlanganidan keyin xavf balliga ta'sir ko'rsatishi lozim.

Nizomga ilova bilan mehnat qonunchiligi buzilishi xavfini aniqlash bo'yicha to'qqizta asosiy ko'rsatkich belgilangan. Har bir ko'rsatkichga uning ijtimoiy ahamiyati va huquqbuzarlik oqibatlarining og'irligidan kelib chiqib 5 balldan 15 ballgacha baho berilgan.

Jumladan, to'liq stavkada ishlovchi xodimning ish haqini mehnatga haq to'lashning eng kam miqdoridan kam hisoblash 15 ball bilan baholanadi. Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilmasligi va mehnatni muhofaza qilish xizmatini tashkil etmasligi ham 15 balllik ko'rsatkichlar qatoriga kiritilgan.

Mehnat sharoitlarini attestatsiyadan o'tkazmaslik, xodimlarga qonunchilikda belgilangan eng kam ta'til muddatidan kam ta'til berish, mehnat shartnomalarini elektron tizimda o'z vaqtida ro'yxatdan o'tkazmaslik hamda mehnatni muhofaza qilish bo'yicha o'qitishni tashkil etmaslik 10 ball bilan baholanadi.

Xorijiy fuqaroni tegishli tasdiqnomasiz ishga qabul qilish esa 5 ball qilib belgilangan.

Ayrim ko'rsatkichlarning vazni yanada chuqurroq asoslantirilishi lozim. Masalan, mehnatni muhofaza qilish xizmatini tashkil etmaslik 15 ball, mehnat sharoitlarini



attestatsiyadan o'tkazmaslik esa 10 ball bilan baholangan. Vaholanki, ishlab chiqarishda baxtsiz hodisa yoki kasb kasalligi yuzaga kelishi ehtimoli yuqori bo'lgan korxonada attestatsiya o'tkazilmaganligi xodimlarning hayoti va sog'lig'i uchun jiddiy xavf tug'dirishi mumkin.

Bundan tashqari, korxonaning faoliyat turi, xodimlar soni, ishlab chiqarishdagi xavflilik darajasi, avvalgi huquqbuzarliklarning takroriyligi va oqibatlari ham hisobga olinishi kerak. Bir xil huquqbuzarlik kichik xizmat ko'rsatish korxonasi va yuzlab xodimlar faoliyat yuritadigan xavfli ishlab chiqarish obyektida turlicha oqibatlarga sabab bo'lishi mumkin.

"Xavfni tahlil qilish" elektron tizimining birinchi muhim afzalligi - tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga asossiz aralashuvlarni qisqartirishdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14 noyabrdagi PF-184-son Farmoniga muvofiq, xavf darajasi past bo'lgan tadbirkorlik subyektlarida nazorat qiluvchi organlar tomonidan tekshiruvlar o'tkazilmaydi. O'rta va yuqori xavf darajasidagi subyektlarda esa profilaktika tadbirlari yoki tekshiruvlar o'tkazilishi mumkin.

Bu tartib qonunchilikka muntazam rioya etayotgan tadbirkorlarni ortiqcha tekshiruvlardan himoya qiladi va davlat organlariga e'tiborni haqiqatan xavf mavjud bo'lgan subyektlarga qaratish imkonini beradi.

Ikkinchi afzallik-inson omilining kamayishidir. Xavf darajasining avtomatik tarzda hisoblanishi mansabdor shaxsning subyektiv fikri asosida tadbirkorni tekshirish uchun tanlash ehtimolini pasaytiradi. Bu korrupsiyaviy xavflarni cheklashga ham xizmat qiladi.

Uchinchi afzallik-mehnat huquqbuzarliklarining oldini olish imkoniyatidir. Tizim huquqbuzarlik sodir etilganidan keyin emas, balki uning ehtimoli oshgan bosqichda xavfni aniqlashga qaratilgan. Masalan, mehnat shartnomalarining elektron tizimda ro'yxatdan o'tkazilmaganligi yoki mehnatni muhofaza qilish bo'yicha o'qitish tashkil etilmaganligi haqidagi ma'lumotlar jiddiy huquqbuzarlik yuzaga kelishidan oldin profilaktika tadbiri o'tkazishga asos bo'lishi mumkin.



To'rtinchi afzallik - davlat organlarining resurslaridan samarali foydalanishdir. Barcha korxonalarni bir xil darajada nazorat qilish o'rniga inspektorlar yuqori xavfli subyektlar bilan ishlaydi. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti tomonidan 2026-yilda e'lon qilingan tadqiqotda ham raqamli texnologiyalar va ma'lumotlar tahlili yuqori xavfli sohalarni aniqlash, nazorat resurslarini to'g'ri taqsimlash va ortiqcha ma'muriy aralashuvlarni kamaytirishga xizmat qilishi qayd etilgan.

Elektron tizimning samaradorligi, birinchi navbatda, unga kiritiladigan ma'lumotlarning to'liqligi va ishonchliligiga bog'liq. Davlat organlarining axborot bazalari o'zaro integratsiya qilinmagan yoki ma'lumotlar o'z vaqtida yangilanmagan holda tizim noto'g'ri natija chiqarishi mumkin.

Masalan, mehnat shartnomasi amalda tuzilgan, biroq texnik nosozlik sababli "Yagona milliy mehnat tizimi"da kech ro'yxatdan o'tkazilgan bo'lsa, tadbirkorga avtomatik ravishda xavf balli berilishi mumkin. Shuningdek, korxona sug'urta shartnomasini tuzgan, lekin sug'urta tashkiloti ma'lumotni davlat axborot tizimiga kechiktirib kiritgan bo'lishi ehtimoldan xoli emas.

Ikkinchi muammo avtomatlashtirilgan baholash algoritmining shaffofligi bilan bog'liq. Tadbirkorlik subyekti qaysi ma'lumot asosida unga muayyan ball berilganini bilishi kerak. Faqat yakuniy xavf toifasini ko'rsatish subyektning o'z huquqlarini himoya qilishi uchun yetarli emas.

Uchinchi muammo xavf darajasini qayta ko'rib chiqish davriyligi aniq belgilanmaganligidir. Tadbirkor aniqlangan kamchilikni bartaraf etganidan keyin ham ma'lum vaqt davomida yuqori xavf toifasida qolishi mumkin. Bu esa profilaktika chorasining rag'batlantiruvchi xususiyatini pasaytiradi.

To'rtinchi muammo subyektlarning xavf darajasini belgilashda ularning ijobiy xatti-harakatlari hisobga olinmaganligidir. Nizom asosan salbiy holatlar uchun ball berishga asoslangan. Korxonaning uzoq vaqt davomida qonunchilikni buzmagani, mehnatni muhofaza qilish bo'yicha xalqaro standartlarni joriy etganligi yoki xodimlar



uchun qo'shimcha ijtimoiy kafolatlar yaratganligi xavf ballini kamaytirishga ta'sir qilmaydi.

Birinchi navbatda, xavf darajalarining ball chegaralari o'rtasidagi takrorlanish bartaraf etilishi va har bir ball faqat bitta toifaga tegishli bo'lishi kerak.

Ikkinchidan, xavf ko'rsatkichlari faqat huquqbuzarlikning formal mavjudligiga emas, balki uning takroriyliigi, davomiyligi, qamrab olgan xodimlar soni va ehtimoliy zarar darajasiga qarab differensiatsiya qilinishi maqsadga muvofiq.

Masalan, mehnat shartnomasini bir kun kech ro'yxatdan o'tkazgan korxona bilan umuman mehnat shartnomasi tuzmasdan ko'p sonli xodimlarni ishlatayotgan korxonaga bir xil ball berilishi adolat va mutanosiblik prinsiplariga mos kelmaydi.

Uchinchidan, tadbirkorlik subyekting shaxsiy kabineti orqali xavf darajasi, to'plangan ball, har bir ballning huquqiy va axborot manbasi hamda uni kamaytirish uchun bajarilishi lozim bo'lgan choralar ko'rsatilishi kerak.

To'rtinchidan, tadbirkor kamchilikni bartaraf etganidan keyin elektron shaklda tasdiqlovchi ma'lumot taqdim etishi va xavf darajasini navbatdan tashqari qayta hisoblashni so'rash imkoniyatiga ega bo'lishi lozim.

Beshinchidan, tizimda "kamayib boruvchi ball" mexanizmini joriy etish mumkin. Muayyan huquqbuzarlik ma'lum muddat davomida takrorlanmasa, unga berilgan ball avtomatik ravishda kamaytirib borilishi kerak. Bu tadbirkorlarni qonunchilikka rioya etishga rag'batlantiradi.

Oltinchidan, xavf mezonlari va ularning samaradorligi muntazam ravishda baholanishi zarur. Qaysi ko'rsatkichlar haqiqiy tekshiruvlarda huquqbuzarlik aniqlanishi bilan yuqori darajada bog'liq ekani statistik tahlil qilinishi, samarasiz mezonlar qayta ko'rib chiqilishi lozim.

Yettinchidan, elektron tizim faoliyati yuzasidan ochiq statistik ma'lumotlar e'lon qilib borilishi maqsadga muvofiq. Ularda har bir xavf toifasidagi subyektlar soni, o'tkazilgan profilaktika tadbirlari, tekshiruvlar soni, aniqlangan huquqbuzarliklar va shikoyatlar natijalari aks ettirilishi kerak.



Sakkizinchidan, avtomatik baholash natijasi bevosita jazo chorasini qo'llashga asos bo'lmasligi haqidagi kafolat amalda ham qat'iy ta'minlanishi zarur. Nizomda elektron tizim natijasi tadbirkorlik subyektiga nisbatan ta'sir choralari qo'llash uchun mustaqil asos bo'la olmasligi belgilangan. Demak, har qanday javobgarlik chorasini faqat qonunchilikda belgilangan tartibda o'tkazilgan tekshiruv va aniqlangan huquqbuzarlik natijasida qo'llanilishi mumkin.

Xulosa

Mehnat munosabatlarida "Xavfni tahlil qilish" elektron tizimining joriy etilishi O'zbekistonda davlat nazoratini raqamlashtirish va xavfga asoslangan tartibga solishga o'tish yo'lidagi muhim qadam hisoblanadi.

Mazkur tizim tadbirkorlik subyektlarini xavf darajasi bo'yicha tasniflash, past xavfli subyektlarni ortiqcha tekshiruvlardan ozod etish, yuqori xavfli yo'nalishlarga davlat resurslarini manzilli yo'naltirish hamda mehnat huquqbuzarliklarining oldini olish imkonini beradi.

Shu bilan birga, tizimning samarali ishlashi axborot bazalarining integratsiyasi, ma'lumotlarning ishonchliligi, baholash algoritmlarining shaffofligi, ball mezonlarining mutanosibligi va tadbirkorlarning samarali shikoyat qilish huquqi ta'minlanishiga bog'liq.

Xavf ko'rsatkichlarini muntazam qayta ko'rib chiqish, huquqbuzarlikning og'irligi va takroriylikni hisobga olish, ijobiy xulq-atvor uchun rag'batlantiruvchi mexanizmlarni kiritish hamda tadbirkorlarga o'z xavf profilini ko'rish imkoniyatini berish tizimning adolatlilik va natijadorligini oshiradi.

Natijada "Xavfni tahlil qilish" elektron tizimi faqat tekshiruv uchun subyektlarni tanlash vositasi emas, balki ish beruvchilarni mehnat qonunchiligiga ixtiyoriy rioya etishga rag'batlantiruvchi, xodimlarning mehnat huquqlarini himoya qiluvchi va davlat bilan tadbirkorlik subyektlari o'rtasidagi ishonchni mustahkamlovchi kompleks profilaktik mexanizmga aylanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati



1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. — Toshkent, 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi. 2022-yil 28-oktyabr, O‘RQ–798-son.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-noyabrdagi “Tadbirkorlar huquqlari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–184-son Farmoni.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 17-apreldagi “Tadbirkorlik faoliyatiga noqonuniy aralashuvlarni cheklash va nazorat tadbirlarining shaffofligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–63-son Farmoni.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 13-sentyabrdagi “Tadbirkorlik subyektlari faoliyatida tekshiruvlar o‘tkazishni muvofiqlashtirish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–374-son qarori.
6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 19-oktyabrdagi “Nazorat qiluvchi organlar tomonidan tadbirkorlik subyektlari faoliyatida davlat nazoratini tashkil etish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 611-son qarori.
7. O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirining 2026-yil 1-iyuldagi “Mehnat munosabatlarida qonunchilikka rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirishda “Xavfni tahlil qilish” elektron tizimini joriy etish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 9-son buyrug‘i. Adliya vazirligida 3881-son bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan.
8. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi: Lex.uz.
9. O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligining rasmiy axborot resurslari.

